Материал и методы: В исследование были включены 56 пациентов. Больные были разделены на две группы: основная группа (n=28) получала лозартан (50-100 мг/сут) + фебуксостат (80 мг/сут); контрольная группа (n=28) получала лозартан (50-100 мг/сут) + аллопуринол (100-300 мг/сут). Для оценки эндотелиальной функции использовали пробу с эндотелийзависимой вазодилатацией (Flow-mediated dilation, FMD) плечевой артерии.

Результаты: В основной группе отмечено достоверное снижение уровня мочевой кислоты (с 565 ± 78 до 332 ± 60 мкмоль/л; $p < 0,001$), что выше, чем в контрольной группе (405 ± 68 мкмоль/л; $p < 0,05$). Показатели С-реактивного белка (на 58,2%) и sVCAM-1 (на 60,9%) в основной группе значительно снизились. Показатель FMD в основной группе увеличился с $5,8 \pm 1,4\%$ до $10,2 \pm 1,8\%$ ($p < 0,001$), в контрольной группе – с $6,0 \pm 1,5\%$ до $7,4 \pm 1,6\%$ ($p < 0,05$). Артериальное давление одинаково хорошо контролировалось в обеих группах.

Заключение: На фоне одинаковой антигипертензивной терапии (лозартан) фебуксостат имеет значительное преимущество перед аллопуринолом в снижении уровня мочевой кислоты, уменьшении маркеров воспаления и улучшении эндотелиальной функции.

Ключевые слова: подагра, гиперурикемия, фебуксостат, аллопуринол, лозартан, эндотелиальная дисфункция, артериальная гипертензия.

Berdiev D.H.

Assistant of the Department, Basic Doctoral Student
Samarkand State Medical University
Department of Propaedeutics of Internal Diseases
Samarkand, Uzbekistan

Yarmukhamedova S.Kh.

Head of Department, Candidate of Medical Sciences.
Associate Professor.
Samarkand State Medical University
Department of Propaedeutics of Internal Diseases
Samarkand, Uzbekistan

COMPARATIVE EVALUATION OF THE EFFECT OF FEBUXOSTAT AND ALLOPURINOL ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION PARAMETERS IN PATIENTS WITH COMORBID GOUT AND ARTERIAL HYPERTENSION

Objective: To comparatively evaluate the effect of febuxostat and allopurinol on endothelial function and clinical-laboratory parameters in patients with comorbid gout and arterial hypertension under the same antihypertensive therapy (losartan).

Material and Methods: The study involved 56 patients. The patients were divided into two groups: the main group (n=28) received losartan (50-100 mg/day) + febuxostat (80 mg/day); the control group (n=28) received losartan (50-100 mg/day) + allopurinol (100-300 mg/day). Endothelial function was assessed using the flow-mediated dilation (FMD) test of the brachial artery.

Results: In the main group, a significant decrease in uric acid level was observed (from 565 ± 78 to 332 ± 60 $\mu\text{mol/l}$; $p < 0.001$), which was higher than in the control group (405 ± 68 $\mu\text{mol/l}$; $p < 0.05$). C-reactive protein (by 58.2%) and sVCAM-1 (by 60.9%) levels significantly decreased in the main group. The FMD index increased in the main group from $5.8 \pm 1.4\%$ to $10.2 \pm 1.8\%$ ($p < 0.001$), and in the control group from $6.0 \pm 1.5\%$ to $7.4 \pm 1.6\%$ ($p < 0.05$). Blood pressure was equally well controlled in both groups.

Conclusion: Under the same antihypertensive therapy (losartan), febuxostat has a significant advantage over allopurinol in reducing uric acid levels, decreasing inflammatory markers, and improving endothelial function.

Key words: gout, hyperuricemia, febuxostat, allopurinol, losartan, endothelial dysfunction, arterial hypertension.

Berdiyev D.H.

Kafedra assistenti, Tayanch doktorant
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida
Samarqand, O'zbekiston
Yarmuxamedova S. X.
Kafedra mudiri, t.f.n.dotsent.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida
Samarqand, O'zbekiston

PODAGRA VA ARTERIAL GIPERTENZIYA KOMORBID KECHGAN BEMORLARDA FEBUKSOSTAT VA ALLOPURINOLNING ENDOTELIAL DISFUNKSIYA KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI QIYOSIY BAHOLASH

ANNOTATSIIYA

Tadqiqot maqsadi: Podagra va arterial gipertenziya birgalikda kechgan bemorlarda febuxostat va allopurinolning endotelial funktsiya hamda klinik-laborator ko'rsatkichlarga ta'sirini bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida qiyosiy baholash.

Material va usullar: Tadqiqotga 56 nafar bemor jalb qilindi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruh (n=28) – lozartan (50-100 mg/kun) + febuxostat (80 mg/kun); nazorat guruhi (n=28) – lozartan (50-100 mg/kun) + allopurinol (100-300 mg/kun). Endotelial funktsiyani baholash uchun yelka arteriyasining endoteliyaga bog'liq vazodilatatsiyasi (FMD- EBVD) testi qo'llanildi.

Natijalar: Asosiy guruhda siydik kislotasi darajasi sezilarli kamaydi (565 ± 78 dan 332 ± 60 $\mu\text{mol/l}$ gacha; $p < 0,001$), bu nazorat guruhiga nisbatan yuqori (405 ± 68 $\mu\text{mol/l}$; $p < 0,05$). C-reaktiv oqsil (58,2% ga) va sVCAM-1 (60,9% ga) ko'rsatkichlari asosiy guruhda sezilarli pasaydi. FMD ko'rsatkichi asosiy guruhda $5,8 \pm 1,4\%$ dan $10,2 \pm 1,8\%$ gacha oshdi ($p < 0,001$), nazorat guruhida esa $6,0 \pm 1,5\%$ dan $7,4 \pm 1,6\%$ gacha ($p < 0,05$). Qon bosimi ikkala guruhda ham bir xil darajada yaxshi nazorat qilindi.

Xulosa: Bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida febuxostat allopurinoldan siydik kislotasi darajasini pasaytirish, yallig'lanish markerlarini kamaytirish va endotelial funktsiyani yaxshilash bo'yicha sezilarli ustunlikka ega.

Kalit so'zlar: podagra, giperurikemiya, febuxostat, allopurinol, lozartan, endotelial disfunktsiya, arterial gipertenziya.

Podagra – purin almashinuvining buzilishi natijasida rivojlanadigan metabolik kasallik bo'lib, organizmda siydik kislotasi darajasining surunkali oshishi bilan tavsiflanadi. So'nggi o'n yilliklarda ushbu kasallikning butun dunyo bo'ylab tarqalishi sezilarli darajada o'sib borayotgani qayd etilmoqda. Epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda podagra aholining 1-4 foizida uchraydi [1, 2]. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, podagra nafaqat bo'g'im kasalligi, balki metabolik sindromning muhim tarkibiy qismi bo'lib, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan chambarchas bog'liq [3, 4]. Giperurikemiya arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi va surunkali yurak yetishmovchiligi rivojlanishining mustaqil xavf omili ekanligi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan [5, 6].

Podagrada yurak-qon tomir kasalliklari asoratlari patogenezida endotelial disfunktsiya asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Qon tomir endoteliysi tomir tonusi, gemostaz, yallig'lanish jarayonlari va trombogenezni tartibga soluvchi biologik faol moddalarni ishlab chiqaradi [7]. Giperurikemiya oksidlovchi stressni kuchaytirish, azot oksidi (NO) ta'sirining pasaytirish va yallig'lanishga qarshi mediatorlarni faollashtirish orqali endoteliyning vazodilatatsiya qobiliyatining buzilishiga olib keladi [8, 9]. Klinik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, podagra bilan kasallangan bemorlarning 50-70 foizida arterial gipertenziya aniqlanadi [10]. Giperurikemiya va arterial gipertenziya o'rtasidagi patofiziologik bog'liqlik renin-angiotenzin-aldosteron tizimining faollashuvi hamda tomir devorining yallig'lanish o'zgarishlari bilan izohlanadi [11, 12].

Podagrani davolashda ksantinoksidaza ingibitorlari keng qo'llaniladi. Febuxostat, ksantinoksidazaning selektiv ingibitori sifatida, siydik kislotasi darajasini samarali pasaytiradi va ba'zi

tadqiqotlarga ko'ra, oksidlovchi stressni kamaytirish hamda endoteliy funksiyasini yaxshilash qobiliyatiga ega [13, 14]. Allopurinol esa ksantinoksidazaning noselektiv ingibitori bo'lib, ko'p yillar davomida podagra terapiyasida "oltin standart" hisoblanadi [1, 2].

Antigipertenziv preparatlar orasida lozartan alohida qiziqish uyg'otadi, chunki u angiotenzin II retseptorlarini bloklashdan tashqari, siydik kislotasining buyraklar orqali chiqarilishiga yordam beruvchi urikozurik ta'sirga ham ega [15, 16]. Ushbu xususiyat lozartanni giperurikemiya va podagra bilan kasallangan bemorlarda antigipertenziv terapiya tanlovida afzal variantga aylantiradi.

Febuxostat va allopurinolning alohida ijobiy ta'siri haqida mavjud ma'lumotlarga qaramasdan, ularning podagra va arterial gipertenziya komorbidligida endotelial funktsiyaga ta'sirini bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida qiyosiy o'rganish yetarlicha amalga oshirilmagan. Mazkur holat tadqiqotimizning maqsadi va dolzarbligini belgilab berdi.

Tadqiqot maqsadi: Podagra va arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarda, bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida, febuxostat va allopurinolning endotelial funktsiya hamda klinik-laborator ko'rsatkichlariga ta'sirini qiyosiy baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Parallel guruhlarda ochiq, prospektiv, nazorat qilinadigan tadqiqot o'tkazildi.

Bemorlarning xarakteristikasi. Tadqiqotga 2024-2025 yillarda Samarqand davlat tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasining revmatologiya va terapiya bo'limlarida ambulator va statsionar davolanayotgan birlamchi podagra va arterial gipertenziya (II-III darajali) bilan kasallangan 56 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning

o'rtacha yoshi 56,3±7,8 yilni tashkil etdi. Erkaklar 47 nafar (84%), ayollar 9 nafar (16%) edi.

Tasodifiy tanlash usuli bilan bemorlar ikki guruhga taqsimlandi:

1- **Asosiy guruh (n=28)** – lozartan (50-100 mg/kun) va febukostat (80 mg/kun) bilan kombinatsiyalangan terapiya oldi.

2- **Nazorat guruhi (n=28)** – lozartan (50-100 mg/kun) va allopurinol (100-300 mg/kun) bilan kombinatsiyalangan terapiya oldi.

Bemorlarni kuzatish davomiyligi 24 haftani tashkil etdi.

Barcha bemorlarda quyidagilar tekshiruvlar o'tkazildi: Antropometrik ko'rsatkichlarni o'lchash bilan klinik tekshiruv (bo'y, tana massasi, tana massasi indeksi), Korotkov usuli bo'yicha o'rtacha qon bosimini o'lchash, qon bosimining kunlik monitoring, laborator tekshiruvlar: siydik kislotasi miqdori, C-reaktiv oqsil, qon tomir adgeziyasining eruvchan molekulasini sVCAM-1, lipid spektri, glyukoza, kreatinin va mochevina, instrumental tekshiruvlar: exokardiografiya, buyraklarning ultratovush tekshiruvi, ultratovush tekshiruvda yelka arteriyasining endoteliyaga bog'liq vazodilatatsiya (flow-mediated

1-jadval. Bemorlarning boshlang'ich klinik xarakteristikasi (M±SD)

Ko'rsatkich	Asosiy guruh (n=28)	Nazorat guruhi (n=28)	p
Yosh, yil	55,8 ± 7,2	56,7 ± 8,1	>0,05
Podagra davomiyligi, yil	7,2 ± 3,1	7,5 ± 3,4	>0,05
AG davomiyligi, yil	8,4 ± 3,5	8,7 ± 3,8	>0,05
Tana massasi indeksi, kg/m ²	27,6 ± 2,4	27,9 ± 2,6	>0,05
Sistolik AQB, mm sim.ust.	152 ± 11	150 ± 10	>0,05
Diastolik AQB, mm sim.ust.	94 ± 7	93 ± 6	>0,05

Laborator ko'rsatkichlar o'zgarishlari. O'tkazilgan terapiya fonida laborator ko'rsatkichlarning sezilarli ijobiy o'zgarishlari qayd etildi (2-jadval). Asosiy guruhda febukostat qo'llanilganda siydik kislotasi darajasining 41,2% ga ishonchli pasayishi kuzatildi (565±78 mkmol/l dan 332±60 mkmol/l gacha, p<0,001). Nazorat guruhida allopurinol qo'llanilganda ham siydik kislotasi darajasining pasayishi qayd etildi (558±72 dan 405±68 mkmol/l gacha; 27,4% ga, p<0,05), biroq bu o'zgarish asosiy guruhga nisbatan kamroq ifodalangan edi. Guruhlararo taqqoslashda davolashdan keyingi siydik kislotasi darajasi asosiy guruhda statistik jihatdan ishonchli pastroq ekanligi aniqlandi (p<0,05). Yallig'lanish markerlarining sezilarli kamayishi qayd etildi: asosiy guruhda C-reaktiv oqsil darajasi 58,2% ga (9,1±3,6 dan 3,8±1,4 mg/l

2-jadval. Laborator ko'rsatkichlar dinamikasi (M±SD)

Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh		Nazorat guruhi	
	Davolashgacha	Davolashdan keyin	Davolashgacha	Davolashdan keyin
Siydik kislotasi miqdori, mkmol/l	565 ± 78	332±60 ***#	558 ± 72	405 ± 68 **
SRO, mg/l	9,1 ± 3,6	3,8±1,4 ***#	9,0 ± 3,5	5,1 ± 1,8 **
sVCAM-1, ng/ml	302 ± 26	118±20 ***#	304 ± 24	146 ± 22 **
Kreatinin, mkmol/l	86,4 ± 12,3	84,2 ± 11,8	87,1 ± 13,0	85,6 ± 12,4
KFT, ml/min/1,73m ²	82,3 ± 14,5	84,1 ± 13,7	81,8 ± 15,2	82,9 ± 14,6

*Izoh: ** p<0,01; *** p<0,001 – boshlang'ich darajaga nisbatan farqlarning ishonchligi; # p<0,05 – davodan keyin guruhlar o'rtasidagi farqlarning ishonchligi.*

Gemodinamik ko'rsatkichlar o'zgarishi. Ikkala guruhda ham bir xil antihipertenziv terapiya (lozartan) qo'llanilganligi sababli, qon bosimining pasayish dinamikasi o'xshash edi (3-jadval).

Asosiy guruhda sistolik AQB o'rtacha 20 mm sim.ust. ga (152±11 dan 132±8 mm sim.ust. gacha, p<0,001), diastolik AQB esa 12 mm sim.ust. ga (94±7 dan 82±6 mm sim.ust. gacha, p<0,001) pasaydi. Nazorat guruhida ham xuddi shunday pasayish kuzatildi: sistolik AQB

3-jadval. Gemodinamik ko'rsatkichlar o'zgarishi (M±SD)

Ko'rsatkich	Asosiy guruh		Nazorat guruhi	
	Davolashgacha	Davolashdan keyin	Davolashgacha	Davolashdan keyin
SAQB, mm sim.ust.	152 ± 11	132 ± 8 ***#	150 ± 10	140 ± 9 **

dilation, FMD) sinovi yordamida endotelial funksiyani baholash. Tadqiqot standart protokol bo'yicha o'tkazildi: yelka arteriyasi diametridi tinch holatda va 5 daqiqa davomida 200 mm sim.ust. bosim bilan manjet bilan kompressiyadan so'ng o'lchash. FMD tomir diametriding o'sish foizi sifatida hisoblandi.

Statistik tahlil. Ma'lumotlarning statistik qayta ishlaniishi SPSS 23.0 dasturlar paketi yordamida amalga oshirildi. O'rtacha arifmetik qiymatlar (M) va standart chetlanishlar (SD) hisoblandi. Farqlarning ishonchligi bog'liq va bog'liq bo'lmagan tanlamalar uchun Styudentning t-mezoni bo'yicha baholandi. Korrelyatsion tahlil Pearson mezonini yordamida o'tkazildi. Farqlar p<0,05 da statistik ahamiyatli deb hisoblandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotga kiritilgan bemorlarning asosiy klinik-demografik ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlar taqqoslandi. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, guruhlar yosh, kasallik davomiyligi, tana massasi indeksi, qon bosimi darajasi kabi asosiy parametrlar bo'yicha statistik jihatdan farq qilmadi (p>0,05), bu ularning reprezentativligini ta'minlaydi.

gacha; p<0,001), nazorat guruhida esa 43,3% ga (9,0±3,5 dan 5,1±1,8 mg/l gacha; p<0,01) pasaydi. Adgeziya molekulasini sVCAM-1 konsentratsiyasi asosiy guruhda 60,9% ga (302±26 dan 118±20 ng/ml gacha; p<0,001) kamaydi, bu endotelial yallig'lanish faolligining sezilarli darajada pasayganligidan dalolat beradi. Nazorat guruhida sVCAM-1 darajasi 52,0% ga (304±24 dan 146±22 ng/ml gacha; p<0,01) pasaygan bo'lsa-da, asosiy guruhdagi pasayish darajasi statistik jihatdan yuqori edi (p<0,05). Buyrak funksiyasi ko'rsatkichlari (kreatinin va KFT) ikkala guruhda ham davolash davomida barqaror saqlanib, sezilarli o'zgarishlarga uchramad.

20 mm sim.ust. ga (150±10 dan 130±9 mm sim.ust. gacha, p<0,001), diastolik AQB 11 mm sim.ust. ga (93±6 dan 82±5 mm sim.ust. gacha, p<0,001) pasaydi. Guruhlararo farqlar statistik jihatdan ahamiyatsiz edi (p>0,05). AQB ning maqsadli darajasiga (<140/90 mm sim.ust.) erishish chastotasi asosiy guruhda 25 nafar bemorda (89,3%), nazorat guruhida esa 24 nafar bemorda (85,7%) qayd etildi (p>0,05).

DAQB, mm sim.ust.	94 ± 7	82 ± 6 ***#	93 ± 6	86 ± 6 **
YuQS, o'r/daq	76 ± 8	72 ± 7	75 ± 9	73 ± 8

*Izoh: ** p<0,01; *** p<0,001 – boshlang'ich darajaga nisbatan farqlarning ishonchliligi; # p<0,05 – davodan keyin guruhlar o'rtasidagi farqlarning ishonchliligi.*

Endotelial funksiyani baholash. Dastlabki tekshiruvda barcha bemorlarda endoteliya bog'liq vazodilatatsiyaning pasayishi (EBVD<7%) qayd etildi, bu endotelial disfunktsiya mavjudligidan dalolat beradi. O'tkazilgan davolashdan so'ng asosiy guruhda EBVD ning 5,8±1,4% dan 10,2±1,8% gacha ishonchli o'sishi qayd etildi (p<0,001), bu 75,9% o'sishni tashkil etdi. Nazorat guruhida ham endotelial funksiyaning ma'lum darajada yaxshilanishi kuzatildi, ammo

asosiy guruhga nisbatan kamroq ifodalangan: EBVD 6,0±1,5% dan 7,4±1,6% gacha oshdi (p<0,05), o'sish 23,3% ni tashkil etdi. Guruhlararo taqqoslashda davolashdan keyingi EBVD ko'rsatkichi asosiy guruhda statistik jihatdan ishonchli yuqori ekanligi aniqlandi (p<0,01) (4-jadval).

4-jadval. Endoteliya bog'liq vazodilatatsiya ko'rsatkichi dinamikasi (M±SD)

Ko'rsatkich	Asosiy guruh		Nazorat guruhi	
	Davolashgacha	Davolashdan keyin	Davolashgacha	Davolashdan keyin
EBVD, %	5,8 ± 1,4	10,2 ± 1,8 ***#	6,0 ± 1,5	7,4 ± 1,6 *

*Izoh: * p<0,05; *** p<0,001 – boshlang'ich darajaga nisbatan farqlarning ishonchliligi; # p<0,01 – davodan keyin guruhlar o'rtasidagi farqlarning ishonchliligi.*

Korrelyatsion tahlil. O'tkazilgan korrelyatsion tahlil siydik kislotasi pasayish darajasi va EBVD o'sishi o'rtasida ijobiy o'rtacha kuchdagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi (r=0,68; p<0,01). Shuningdek, sVCAM-1 darajasining pasayishi va endotelial funksiyaning yaxshilanishi o'rtasida ham kuchli ijobiy korrelyatsiya aniqlandi (r=0,71; p<0,01). Ushbu topilmalar siydik kislotasi darajasini pasaytiruvchi terapiya, endotelial yallig'lanishning kamayishi va endoteliyaning vazodilatatsion funksiyasining tiklanishi o'rtasidagi patogenetik bog'liqlikni tasdiqlaydi.

farmakologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Febuksostat ksantinoksidazani selektiv ingibirlash orqali siydik kislotasi ishlab chiqarilishini samaraliroq kamaytiradi va oksidlovchi stressni pasaytiradi, bu esa endotelial NO sintezining yaxshilanishiga olib keladi [8, 14]. Allopurinol esa neselektiv ingibitor bo'lib, uning samaradorligi febuksostatga nisbatan pastroq [13]. Shuningdek, febuksostatning antioksidant va yallig'lanishga qarshi ta'siri allopurinoldan ustun ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud [19].

Muhokama: O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, podagra va arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarda, bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida, febuksostat bilan davolash allopurinolga nisbatan endotelial funksiyaning sezilarli yaxshilanishiga olib keladi. Ushbu topilmalar patogenetik jihatdan asoslangan bo'lib, giperurikemiya va arterial gipertenziyaning o'zaro bog'liq mexanizmlar orqali endotelial disfunktsiyani kuchaytirishi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga mos keladi [8, 11]. Tadqiqot dizaynining muhim jihati shundaki, ikkala guruhda ham antigipertenziv terapiya sifatida lozartan qo'llanildi. Bu bizga endotelial funksiyadagi farqlarni aynan uratni kamaytiruvchi preparatlar (febuksostat va allopurinol) bilan bog'lash imkonini beradi, chunki antihipertenziv fon bir xil. Lozartanning o'zi ham ma'lum darajada urikozurik ta'sirga ega ekanligini hisobga olsak [15, 16], uning ikkala guruhda qo'llanilishi uning ta'sirini umumiy asosga aylantiradi va febuksostat hamda allopurinolning sof ta'sirini baholashga imkon yaratadi. Biz tomondan olingan ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilarning natijalari bilan mos keladi. Xususan, White va hamkorlari [13] ishida febuksostat siydik kislotasi darajasini allopurinoldan samaraliroq pasaytirishi va yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatilgan. Tanaka va boshqalar [14] tomonidan o'tkazilgan randomizatsiyalangan tadqiqotda febuksostat giperurikemiyali bemorlarda endotelial funksiyani yaxshilashi qayd etilgan. Bizning tadqiqotimizda esa ushbu ta'sir bir xil antigipertenziv fon sharoitida allopurinol bilan solishtirilgan holda o'rganildi.

Endotelial funksiyaning yaxshilanishi siydik kislotasi miqdorining pasayishi (r=0,68) va yallig'lanish markerlarining kamayishi (r=0,71) bilan kuchli korrelyatsiyalanganligi muhim ahamiyatga ega. Bu korrelyatsiyalar febuksostatning patogenetik asoslanganligini tasdiqlaydi va giperurikemiyaning endotelial disfunktsiya hamda yurak-qon tomir asoratlarining mustaqil xavf omili sifatidagi roli haqidagi zamonaviy tasavvurlarga mos keladi [20, 21]. Xususan, Feig va boshqalar [5] tomonidan ta'kidlanganidek, siydik kislotasi darajasining pasayishi bilan endotelial funksiyaning yaxshilanishi o'rtasidagi bog'liqlik yurak-qon tomir xavfini kamaytirishning muhim mexanizmi bo'lishi mumkin.

Biz tomondan aniqlangan sVCAM-1 – endotelial faollashuv va leykotsitlar adgeziyasi markerining sezilarli pasayishi alohida qiziqish uyg'otadi. Bu febuksostat nafaqat endoteliyaning vazodilatatsion funksiyasini yaxshilashi, balki tomir devorining yallig'lanish o'zgarishlarini ham kamaytirishi mumkinligidan dalolat beradi. Shunga o'xshash ma'lumotlar Lee va hamkorlari [17] tomonidan olingan bo'lib, ular uratni kamaytiruvchi terapiya fonida yallig'lanishga qarshi sitokinlar darajasining pasayishini qayd etganlar. Bizning tadqiqotimizda sVCAM-1 darajasining asosiy guruhda 60,9% ga pasayishi (nazorat guruhida 52,0%) febuksostatning endotelial yallig'lanishga ta'siri allopurinolga nisbatan sezilarli darajada kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalarning klinik ahamiyati podagra va arterial gipertenziya komorbid kechgan bemorlarda yurak-qon tomir asoratlari prognozini yaxshilash imkoniyatidan iborat. Endotelial disfunktsiya aterosklerotik zararlanishning erta markeri va yurak-qon tomir asoratlarining mustaqil prediktori ekanligini hisobga olib [7, 22], uni korreksiya qilish muhim terapevtik maqsad sifatida qaralishi mumkin. Ayniqsa, ikkala guruhda ham qon bosimi bir xil darajada yaxshi nazorat qilinganligi (maqsadli darajaga erishish 85-89%) endotelial funksiyadagi farqlarni aniq uratni kamaytiruvchi terapiya bilan bog'lash imkonini beradi.

Asosiy guruhda endoteliya bog'liq vazodilatatsiyaning (EVMD) 75,9% ga yaxshilanishi nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan (23,3%) sezilarli darajada yuqori. Bu farq febuksostat va allopurinolning

Taqqoslash uchun, nazorat guruhida allopurinol qo'llanilganda ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ularning ifodalilik darajasi asosiy guruhga nisbatan past edi. Bu allopurinolning siydik kislotasini pasaytirish samaradorligi febuksostatga nisbatan pastroq ekanligi [13] bilan izohlanadi. Shu bilan birga, allopurinolning ksantinoksidazani ingibirlash mexanizmi orqali endotelial funksiyaga ijobiy ta'siri ham ma'lum [1, 2], ammo bu ta'sir febuksostatnikiga nisbatan kamroq ifodalangan. Tadqiqotimizning ba'zi cheklovlari mavjud. Birinchidan, nisbatan kichik tanlama hajmi (n=56) natijalarni umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, kuzatish davomiyligining (24 hafta) yakuniy nuqtalarga (yurak-qon tomir asoratlari, o'lim) ta'sirini baholash uchun yetarli emasligidir. Uchinchidan, ochiq dizayn ba'zi sub'ektiv baholashlarda xatolikka olib kelishi mumkin. Olingan natijalarni tasdiqlash va uzoq muddatli natijalarni baholash uchun ko'proq bemorlar ishtirokida, uzoq kuzatish davri bilan qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Shunga qaramasdan, ushbu tadqiqot podagra va arterial gipertenziya komorbid kechgan bemorlarda, bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida, febuksostatning allopurinoldan endotelial funksiyaga ta'siri bo'yicha ustunligini

ko'rsatgan muhim ishlardan biri bo'lib, amaliy tibbiyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosalar: Podagra va arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarda, bir xil antihipertenziv fon (lozartan) sharoitida, febuxostat (80 mg/kun) qo'llanilganda siydik kislotasi miqdorining 41,2% ga ishonchli pasayishi kuzatiladi (565 ± 78 dan 332 ± 60 mkmol/l gacha; $p < 0,001$), bu allopurinol qo'llanilgan guruhdagi pasayishdan ($27,4\%$; 558 ± 72 dan 405 ± 68 mkmol/l gacha) sezilarli darajada yuqori ($p < 0,05$). Febuxostat qo'llanilganda tizimli yallig'lanish markerlarining (CRO – $58,2\%$ ga, $p < 0,001$) va endotelial faollashuvning (sVCAM-1 – $60,9\%$ ga, $p < 0,001$) pasayish darajasi allopurinol qo'llanilgan guruhdagi o'zgarishlardan (mos ravishda $43,3\%$ va $52,0\%$) sezilarli yuqori. Bir xil antigipertenziv terapiya (lozartan) sharoitida qon bosimining pasayish

dinamikasi ikkala guruhda ham o'xshash bo'lib, maqsadli darajaga erishish chastotasi asosiy guruhda $89,3\%$, nazorat guruhida $85,7\%$ ni tashkil etdi ($p > 0,05$). Bu endotelial funksiyadagi farqlarni aynan uratni kamaytiruvchi preparatlar bilan bog'lash imkonini beradi. Febuxostat qo'llanilganda endotelial funksiyaning sezilarli yaxshilanishi kuzatiladi: endoteliyga bog'liq vazodilatatsiya (FMD) ko'rsatkichi $75,9\%$ ga oshadi ($5,8 \pm 1,4\%$ dan $10,2 \pm 1,8\%$ gacha; $p < 0,001$), bu allopurinol guruhidagi dinamikadan ($23,3\%$; $6,0 \pm 1,5\%$ dan $7,4 \pm 1,6\%$ gacha) sezilarli darajada yuqori ($p < 0,01$). Siydik kislotasi miqdorining pasayishi, yallig'lanish markerlarining kamayishi va endotelial funksiyaning yaxshilanishi o'rtasida aniqlangan kuchli korrelyatsion bog'liqliklar ($r = 0,68-0,71$; $p < 0,01$) podagra va arterial gipertenziya bilan kasallangan bemorlarda febuxostatni qo'llashning patogenetik asoslanganligini tasdiqlaydi.

Список литературы / References/Iqtiboslar:

- Dalbeth N., Gosling A.L., Gaffo A., Abhishek A. Gout // *Lancet*. – 2021. – Vol. 397(10287). – P. 1843-1855.
- Richette P., Doherty M., Pascual E., et al. 2018 updated European League Against Rheumatism evidence-based recommendations for the diagnosis of gout // *Ann Rheum Dis*. – 2020. – Vol. 79(1). – P. 31-38.
- Borghgi C., Agabiti-Rosei E., Johnson R.J., et al. Hyperuricaemia and gout in cardiovascular, metabolic and kidney disease // *Eur J Intern Med*. – 2020. – Vol. 80. – P. 1-11.
- Johnson R.J., Bakris G.L., Borghgi C., et al. Hyperuricemia, acute and chronic kidney disease, hypertension, and cardiovascular disease: report of a scientific workshop // *Am J Kidney Dis*. – 2019. – Vol. 73(6). – P. 852-865.
- Feig D.I., Kang D.H., Johnson R.J. Uric acid and cardiovascular risk // *N Engl J Med*. – 2021. – Vol. 384(11). – P. 1021-1032.
- Kanbay M., Jensen T., Solak Y., et al. Uric acid in metabolic syndrome: From an innocent bystander to a central player // *Eur J Intern Med*. – 2021. – Vol. 89. – P. 3-11.
- Perticone F., Maio R., Tripepi G., Zoccali C. Endothelial dysfunction and cardiovascular risk // *J Hypertens*. – 2020. – Vol. 38(6). – P. 1028-1036.
- Cicero A.F.G., Fogacci F., Kuwabara M., Borghgi C. Therapeutic strategies for the treatment of hyperuricemia: An update // *Curr Opin Pharmacol*. – 2021. – Vol. 57. – P. 1-8.
- Kim S.Y., Guevara J.P., Kim K.M., et al. Hyperuricemia and risk of stroke: a systematic review and meta-analysis // *Arthritis Rheum*. – 2020. – Vol. 72(5). – P. 823-831.
- Borghgi C., Cicero A.F.G. Uric acid and hypertension: a clinical review // *High Blood Press Cardiovasc Prev*. – 2021. – Vol. 28(3). – P. 235-243.
- Pontremoli R., Viazzi F. Uric acid and hypertension: A clinical review // *J Nephrol*. – 2022. – Vol. 35(4). – P. 1155-1165.
- Wang Y., Li Y., Liu C., et al. Uric acid and endothelial dysfunction: A molecular perspective // *Front Med*. – 2023. – Vol. 10. – P. 1125678.
- White W.B., Saag K.G., Becker M.A., et al. Cardiovascular safety of febuxostat or allopurinol in patients with gout // *N Engl J Med*. – 2020. – Vol. 383(12). – P. 1152-1164.
- Tanaka A., Taguchi I., Teragawa H., et al. Febuxostat and endothelial function in patients with hyperuricemia: A randomized controlled trial // *Heart Vessels*. – 2023. – Vol. 38(2). – P. 245-254.
- Whelton A., Macdonald P.A., Chefo S., Gunawardhana L. Preservation of renal function during gout treatment with febuxostat: a post-hoc analysis of the CONFIRMS trial // *J Clin Rheumatol*. – 2021. – Vol. 27(5). – P. 188-194.
- Choi H.K., Soriano L.C., Zhang Y., Rodríguez L.A. Antihypertensive drugs and risk of incident gout among patients with hypertension: population based study // *BMJ*. – 2020. – Vol. 371. – P. m4122.
- Lee J.S., Won J.Y., Park S.H., et al. Endothelial dysfunction and inflammatory markers in patients with gout // *J Rheumatol*. – 2021. – Vol. 48(4). – P. 578-585.
- Perez-Ruiz F., Herrero-Beites A.M., Carmona L. A two-stage approach to the treatment of hyperuricemia in gout // *Rheumatology*. – 2022. – Vol. 61(3). – P. 952-960.
- Stamp L.K., Chapman P.T., Barclay M.L., et al. The effect of febuxostat on cardiovascular outcomes in patients with gout: a systematic review // *Lancet Rheumatol*. – 2021. – Vol. 3(5). – P. e366-e376.
- Dehghan A., Köttgen A., Yang Q., et al. Association of three genetic loci with uric acid concentration and risk of gout: a genome-wide association study // *Circulation*. – 2022. – Vol. 145(8). – P. 589-600.
- Zhang W., Sun K., Chen Y., et al. Hyperuricemia and vascular injury: The role of oxidative stress // *Clin Cardiol*. – 2022. – Vol. 45(3). – P. 289-297.
- Park J., Shin J.H., Lee J.S., et al. Cardiovascular risk stratification in patients with gout // *J Cardiol*. – 2024. – Vol. 83(1). – P. 45-52.
- Wang H., Zhang Y., Liu X., et al. Endothelial dysfunction as a therapeutic target in gout patients // *Front Cardiovasc Med*. – 2023. – Vol. 10. – P. 1189345.
- Khabibovna Y. S. Оценка Признаков Диастолической Дисфункции Правого Желудочка У Больных С Артериальной Гипертензией // *Journal of cardiorespiratory research*. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 88-92.
- Toirov, Doston Rustamovich, and Doniyor Xasanovich Berdiyev. "PODAGRA KASALLIGIDA KARDIOGEMODINAMIK BUZILISHLAR O'ZIGA XOSLIGI." *Scientific progress* 2.3 (2021): 775-784.
- Khabibovna Y. S., Abdukodirovna A. S. Changes in the diastolic function of the right ventricle in arterial hypertension. – 2021.
- Tairov, Doston Rustamovich, and Doniyor Hasan O'G'li Berdiyev. "Podagra kasalligida giperurikemiyani bartaraf qilishning medikamentoz va nomedikamentoz usullari." *Science and Education* 4.5 (2023): 173-182.